



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (2)

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
2-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehnonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI	12
Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	16
Shermuxeimedov Akmal Komiljonovich	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	21
Салимова Зиёда Рустамжон қизи	
ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH	27
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	32
Azlarova Aziza Axrorovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	36
Soyibova Matluba Ahmedboyevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	41
M.O. Yo'ldoshova	
NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH	45
Anvar Deberdiyev	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI	49
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIIY IMKONIYATLAR	55
Ishimova Mohinur Absalomovna	
UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORIY ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	61
Zakirova Gulnoza Quدراتovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna	
TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA NOMOLIVAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	67
Iskanov Xoljigit Nurkosimovich	
RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHIL ETISH AMALIYOTI	73
Suyunov Yorqin Bekmurodovich, Nazarov Ubaydulla Abdumannapovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	79
Yuldashev Akmal Kiyomovich	
TOG'-KON KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIM HOLATINI BAHOLASH VA IQTISODIIY SAMARADORLIK ZAXIRALARINI ANIQLASH	83
Abirova Nargizabonu	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARI VA ULARNING MILLIIY RIVOJLANISHI	88
Turayev Abduvohid Kuldashovich	



IQTISODIYOTNING INNOVATSION TARAQQIYOTI SHAROITIDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	93
Artiqova O'g'iljon Zafar qizi	
O'ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPANIYASI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SEMIR MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	101
Rustamov Zafar	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH TANNARXINI PASAYTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	107
Met yakubov Azamat Djumanazarovich	
BUXORO ARK ANSAMBLI TURISTIK SIG'IM IMKONIYATLARINI BAHOLASH	111
Sulaymonova Malika Maxmudovna, Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПЛАНИРОВАНИЯ, КОНТРОЛЯ И АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ НА МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ	116
Муродов Шавкатжон Фарходович, Зайналов Ж. Р.	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDAGI INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	121
Ochildiyeva Naima Mengziya qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDITLASH AMALIYOTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	127
Melibayev Sodir Adilovich	
TIJORAT BANKLARI RENTABELLIGINI TA'MINLASHDA AKTIVLAR VA REGULYATIV KAPITALNING O'RNI	135
Sheraliev Abbos Xolmuminovich	
DIGITAL TRANSFORMATION OF DECISION-MAKING IN THE NATIONAL ELECTRICITY GRID OF UZBEKISTAN	140
Abdumalik A. Djumanov, Mukhlisa M. Gafurova, Tursunmurod R. Sobirov	
VIRTUAL IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI	147
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
O'ZBEKISTON QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING RIVOJLANISH HOLATI VA INSTITUTIONAL TUZILMASI.....	152
Shamsiddinov Ne'matjon Ashurali o'g'li	
ASOSIY VOSITALAR HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	157
To'ychiyeva Dilnoza Farxod qizi	
ELEKTRON TIJORAT BOZORIDA RISKLARNI BAHOLASH MASALALARI	162
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	
UY-JOY BOZORINI IPOTEKA KREDITLASH AMALIYOTI ORQALI INTEGRATSIYA QILISH: O'ZBEKISTON SHAROITIDA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	166
A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi	
HUDUDIIY INVESTITSIYA TARKIBINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA DINAMIK TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	171
Mirzakulova Risolat Musurmankulovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Bo'taev O'tkir Eshboevich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHNING INNOVATSION USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	181
Umarova Malika Nematjanovna	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЗЕЛЕННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ КАК ФАКТОР СТАНОВЛЕНИЯ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	187
Рахмонов Джамшид Одил угли	



ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В ОРГАНИЗАЦИЯХ КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА.....	194
Абдусаламова Фарогат Сунатиллаевна	
BANK XIZMATLARI KO'RSATISH MEZONLARINI ANIQLASH VA ULARNI BAHOLASH.....	200
Avazbek Jo'rayev	
BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK OMILLARNING IQTISODIY AHAMIYATI	207
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	211
Berdimuratov Kuanishbay Genjebaevich	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ СТЕЙКХОЛДЕРАМИ ПРОЕКТОВ И ПРОГРАММ.....	215
Абдулаттоев Абдухакимжон Абдулхамид угли	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH STRATEGIYASI.....	228
Mohichexra Melikovna Mo'minova	
INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI: XALQARO TAJRIBA TAHLILI	233
Dilbar Xasanovna Aslanova, Usmanova Zumrad Islamovna	
TA'LIM TIZIMIDA MARKETING YONDASHUVI VA TAMOIYILLARINI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI	239
Musayeva Shoirazimovna, Raxmonova Aziza Tolibovna	
MEHMONXONALAR VA OILAVIY MEHMON UYLARI RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI	245
Boynazarov Ulug'bek Egamberdiyevich	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHİYATIDAN FOYDALANISH ORQALI ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	250
Daminov Mirvohid Isroilovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MAKROIQTISODIY VA TARMOQ KO'RSATKICHLARI ASOSIDA TAHLIL	255
Iminoxunov Abdukoxor Abdivaitovich	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING INNOVATION SAMARADORLIKKA TA'SIRI	264
Abdunabiyev Sirojiddin G'anijon o'g'li	
ИССЛЕДОВАНИЕ АКТИВНОСТИ И СТАБИЛЬНОСТИ КАТАЛИЗАТОРОВ В ПРОЦЕССЕ ГИДРООЧИСТКИ НЕФТЕПРОДУКТОВ И ИХ РОЛЬ В ОХРАНЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ.....	271
Тураев Баходир Тиркашевич, Махманов Дониёр Махманович	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDIY TURIZM BOZORINING MARKETING TAMOIYILLARI ASOSIDAGI KOMPLEKS TAHLILI	276
Namozov Shahzod Maxmud o'g'li	
INNOVATIVE TRANSFORMATION PROCESSES AND ADVANCED INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE FIELD OF AGRICULTURAL SERVICES.....	282
Djurayeva Dilnoza Davronovna, Boltayeva Shakhnoza Bebudovna	
COMPARISON OF HOSPITAL-BASED AND HOME-BASED REHABILITATION AFTER CERVICAL SPINE SURGERY IN UZBEKISTAN	290
Shokhruxh Ziyavaddinov	
O'ZBEKISTON AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIVAVIY KOEFFITSIYENTLARI TAHLILI	299
Norqulov Mirsaid To'liqin o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI	306
Turdiyev Izatulla Ollaqulovich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA IJARA HISOBİ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	312
Xoliqulova Yulduz Panji qizi	



ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA RAQAMLASHTIRISH VA INNOVATSIYALARNING O'RNI: XORIJ TAJRIBASI	317
Mavlonov Ozod Ulug'bekovich	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING XORIJIY DAVLATLAR ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI MAMLAKATIMIZDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	322
Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	
BANK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA BOSHQARISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI.....	330
Boltayev Zokirjon Otanazarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASHNING INNOVATION MEKANIZMLARI.....	334
Adilova Zohida Ikromjonovna	
MOLIYAVIY AKTIVLAR TARKIBIDAGI DEBITORLIK QARZDORLIKLARINI MHXS TALABLARI ASOSIDA BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	339
Umurzakov Dilshodbek Xakimovich	
ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ МЕНЕДЖМЕНТА В УСЛОВИЯХ УДАЛЁННОЙ РАБОТЫ	345
Хамидов Далер Дилшодович	
ISMOIL SOMONIY MAQBARASINING TURISTIK SIG'IMINI BAHOLASH: BUXORO TARIXIY MARKAZI MISOLIDA.....	351
Choriyeva Dilovar Tohir qizi, Qilichov Muhiddin Husniddin o'g'li	
CONSUMER TRUST IN UZBEKISTAN'S E-COMMERCE	356
Erkin Shavqiyev Professor, Ulugmurodov Farkhod	
IMPROVING THE FINANCING SYSTEM OF EXPORT ACTIVITIES OF SMALL BUSINESS ENTITIES.....	362
Karamatdinova Aysawle Parakhatovna	
XORIJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARINING RAQAMLI MARKETING VOSITALARI TAHLILI: O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	369
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
SURXONDARYO VILOYATIDA MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIIY-IQTISODIY OMILLARNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	374
Islomov Bobur Bahodir o'g'li	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALARGA AMORTIZATSIYA HISOBLASH USULLARI VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	380
Xasanov Shoxrux Raximjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA REAL SEKTOR KORXONALARINING ROLI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	385
Sobitova Ra'no Solidjonovna, Babaxadjayev Firdavs Bahodir o'g'li	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEK CONSULTING SERVICES MARKET AND METHODS FOR ASSESSING THE POTENTIAL FOR ATTRACTING INVESTMENTS	388
Usmonova Dilfuza Ilkhomovna	
RESPUBLIKAMIZDA UMUMIY OVQATLANISH SOHASI XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARDAN FOYDALANISH.....	394
Kalanova Moxigul Baxritdinova	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA KORXONA BOSHQARUVINING TASHKILIY-IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	399
Azlarova Munira Muhammad-Amin qizi, Yoqubov Madaminbek Abdurahim o'g'li	
BALIQCHILIK SOHASIDA TADBIRKORLIK MAJMUALARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING ROSSIYA TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	406
Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich	



RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA CHIQINDILARNI BOSHQARISH TIZIMINING ZAMONAVIY MODELLARI	416
Xasanov Komil Mutalibjanovich	
TOSHKENT VILOYATI QISHLOQ HUDUDLARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OMILLARI: EMPIRIK TAHLIL	421
Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi	
METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR FINANCIAL SUPPORT FOR THE DEVELOPMENT OF ADDITIONAL ACTIVITIES IN FARM ENTERPRISES	426
Kalimbetov Khaliknazar Kurbanbaevich	
KIMYO SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	432
Suyarov Shaxzod Salim o'g'li	
XALQARO MOLIYA TASHKILOTLARIDAN O'ZBEKISTONGA JALB ETILGAN IMTIYOZLI MABLAG'LARNING SAMARADORLIGI	438
Turdiyeva Zarnigor Asqar qizi	
NAVOIY VILOYATIDA TURIZM XIZMATLARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH.....	442
Turayev Abduvoxid Kuldashevich	



NAVOIY VILOYATIDA TURIZM XIZMATLARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH

Turayev Abduvohid Kuldashovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası assistenti

Email: abduvoxidturayev70@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Navoiy viloyatida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning iqtisodiy mazmuni, hududiy imkoniyatlari va amaliy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda rasmiy qarorlar, statistik ma'lumotlar, turizmga oid ilmiy adabiyotlar hamda viloyatning tabiiy va tarixiy salohiyati asosida xizmatlar turini kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Navoiy viloyati, turizm xizmatlari, diversifikatsiya, ichki turizm, xalqaro turizm, Qizilqum, ekoturizm, ziyorat turizmi, raqamli xizmatlar, turizm infratuzilmasi.

Abstract. This article examines the diversification of tourism services in Navoi region. Based on official policy documents, statistical data and academic sources, the paper proposes practical directions for expanding tourism products and improving the region's competitiveness.

Key words: Navoi region, tourism services, diversification, domestic tourism, international tourism, Kyzylkum, ecotourism, pilgrimage tourism, digital services.

Аннотация. В статье анализируются возможности диверсификации туристических услуг в Навоийской области. На основе официальных нормативных документов, статистических данных и научных источников разработаны предложения по расширению туристических направлений и повышению конкурентоспособности региона.

Ключевые слова: Навоийская область, туристические услуги, диверсификация, внутренний туризм, международный туризм, Кызылкум, экотуризм, паломнический туризм, цифровые услуги.

KIRISH

Turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish hudud iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Chunki turizm faqat mehmonxona va ekskursiya xizmatlari bilan cheklanmaydi; u transport, umumiy ovqatlanish, hunarmandchilik, savdo, madaniy tadbirlar, sport, sog'lomlashtirish, raqamli bronlash, gidlik, tarjimonlik, sug'urta va boshqa ko'plab xizmatlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab iqtisodiy tizimdir.

Navoiy viloyati ushbu jihatdan o'ziga xos imkoniyatlarga ega. Bir tomondan, viloyat sanoat va konchilik salohiyati bilan respublika iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Ikkinchi tomondan, Qizilqum cho'li, Aydarko'l atrofidagi rekreatsion hududlar, Nurota tog'lari, Sarmishsoy petrogliflari, qadimiy karvon yo'llari, ziyorat maskanlari, etnografik an'analar va cho'l landshafti viloyatda turizmning bir nechta turini birgalikda rivojlantirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son¹ Farmoni bilan "2019 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi"da turizm mahsulotlari va xizmatlarini bozorning turli segmentlariga yo'naltirgan holda diversifikatsiya qilish, ichki turizm subyektlari faolligini rag'batlantirish va transport logistikasini rivojlantirish asosiy vazifalar qatorida belgilangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Navoiy viloyatida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish masalasini o'rganishda birinchi navbatda cho'l hududlarida turizmni rivojlantirish bo'yicha mahalliy ilmiy manbalar muhim ahamiyatga ega. R. Hayitboyevning "O'zbekistonning cho'llarida turizmni rivojlantirish istiqbollari" monografiyasida respublika hududining katta qismini egallagan quruq iqlimli cho'l mintaqalarida turizmni tashkil qilishning nazariy, ijtimoiy-iqtisodiy va

1 <https://lex.uz/docs/-4143188>



amaliy jihatlari yoritilgan. Monografiyada cho'l hududlaridagi turistik resurslar, ularning geografiyasi, arxeologik yodgorliklar, ziyorat manzillari, sardobalar, hayvonot va o'simlik dunyosi hamda turizm infratuzilmasi masalalari alohida boblarda tahlil qilingan.² Ushbu yondashuv Navoiy viloyati uchun bevosita ahamiyatlidir, chunki viloyatning katta qismi cho'l landshafti bilan bog'liq bo'lib, aynan shu tabiiy sharoit turizm mahsulotining o'ziga xosligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-apreldagi "2022 — 2026-yillarda Navoiy viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 217-son³ qarori Navoiy viloyatini 2022–2026-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Mazkur qarorda yalpi hududiy mahsulot, xizmat ko'rsatish, qurilish, investitsiyalar, transport, ichimlik suvi, "yashil hududlar" va turizm bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan. Xususan, xizmat ko'rsatish hajmini 3,3 baravar oshirish, turizm obyektlari va dam olish joylarini tashkil qilish hamda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, turistlar sonini oshirish kabi indikatorlar viloyat turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga bevosita asos bo'ladi.

Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid qarorlarda viloyat shahar va tumanlari kesimida "yo'l xaritalari" ishlab chiqilishi, loyihalar ijrosi uchun mas'ul tashkilotlar belgilanishi hamda infratuzilma, tadbirkorlik, investitsiya va xizmat ko'rsatish sohasini birgalikda rivojlantirish nazarda tutilgan.⁴ Bu holat turizm xizmatlarini alohida tarmoq sifatida emas, balki hududiy rivojlanishning boshqa yo'nalishlari bilan integratsiyalashgan tizim sifatida ko'rishni talab qiladi.

Statistik manbalar ham Navoiy viloyatida xizmatlar sohasining kengayib borayotganini ko'rsatadi. Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil yanvar–dekabr oylariga oid press-relizida O'zbekiston bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 050,3 trln so'mni tashkil etgani, Navoiy viloyatida esa xizmatlar hajmi 25,7 trln so'mga yetib, hududning respublika bo'yicha ulushi 2,5 foizni tashkil qilgani qayd etilgan.⁵ Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha Navoiy viloyati 23,3 mln so'm ko'rsatkichi bilan nisbatan yuqori hududlar qatoridan joy olgan.⁶ Ushbu raqamlar viloyatning xizmatlar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun bazasi mavjudligini ko'rsatadi.

Mahalliy ilmiy maqolalarda smart turizm, Big Data, sun'iy intellekt, mobil ilovalar, elektron gidlar va raqamli marketing vositalari turistlar oqimini boshqarish, xizmat sifatini oshirish hamda hududiy turizm salohiyatini targ'ib qilish uchun muhim vosita sifatida ko'rsatilgan.⁷

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, SWOT yondashuvi va ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Birinchi bosqichda Navoiy viloyatining turizm resurslari, rasmiy qarorlar, statistik ma'lumotlar va turizmga oid ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Ikkinchi bosqichda viloyatda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish uchun mavjud salohiyat turlari bo'yicha guruhlandi. Uchinchi bosqichda turizm xizmatlarini kengaytirishning iqtisodiy, infratuzilmaviy, raqamli va marketing yo'nalishlari bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Navoiy viloyatida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish zarurati bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, viloyatning mavjud turistik salohiyati hali to'liq iqtisodiy mahsulotga aylantirilmagan. Sarmishsoy, Nurota, Qizilqum cho'li, Aydarko'l va tarixiy karvon yo'llari alohida-alohida tanilgan bo'lsa-da, ularni yagona turistik paket, raqamli marshrut va xizmatlar majmuasiga birlashtirish imkoniyatlari yetarli darajada ishga solinmagan. Ikkinchidan, turistlarning ehtiyoji xilma-xil: ayrim turistlar tarixiy obidalar va petrogliflarga qiziqsa, boshqalari cho'l safari, etnomadaniy tajriba, gastronomiya, ovul hayoti, tabiat kuzatuv, sport va ekstremal turizm yoki sog'lomlashtirish xizmatlarini afzal ko'radi. Uchinchidan, turizm xizmatlari diversifikatsiyasi hududda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning qulay yo'li hisoblanadi (1-jadval).

2 Hayitboyev R. O'zbekistonning cho'llarida turizmni rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. - Samarqand: SamISI, 2018. - B. 4-6, 11-14.
3 <https://lex.uz/docs/-5988219>

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-dekabrda "Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-430-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-7265566>

5 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari. 2025-yil yanvar-dekabr". Press-reliz. - Toshkent, 2026-yil 20-yanvar. - B. 1-2.

6 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari. 2025-yil yanvar-dekabr". Press-reliz. - Toshkent, 2026-yil 20-yanvar. - B. 2-3.

7 Mamanov M.Q. Raqamli transformatsiya sharoitida turizm menejmentini rivojlantirish istiqbollari. // "XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. - Toshkent, 2026. - №1. - B. 190-203; Bekmurodov B.F., Ergasheva L.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirish uchun raqamli innovatsiyalarni joriy etish. // Solution of Social Problems in Management and Economy. - 2025. - B. 157-160.

1-jadval. Navoiy viloyatida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari⁸

Yo'nalish	Asosiy resurslar	Xizmat turlari	Kutiladigan natija
Ekoturizm va cho'l turizmi	Qizilqum cho'li, Aydarko'l, Nurota tog'lari	Cho'l safari, qum landshafti bo'ylab marshrut, ekologik kuzatuv, foto-tur	Mavsumiy turizm uzayadi, yangi marshrutlar paydo bo'ladi
Tarixiy-madaniy turizm	Sarmishsoy petrogliflari, karvon yo'llari, tarixiy maskanlar	Arxeologik ekskursiya, muzeylashtirish, madaniy festival, gidlik	Hududning madaniy brendi kuchayadi
Ziyorat turizmi	Nurota va boshqa ziyorat maskanlari	Ziyorat marshruti, mehmon uylari, halol ovqatlanish, transport paketi	Ichki turizm va mintaqaviy turistlar oqimi ortadi
Etnografik va qishloq turizmi	Ovul va qishloqlar, milliy urf-odatlar	Mehmon uylari, hunarmandchilik, milliy taomlar, folklor dasturlari	Aholi daromadi va bandligi oshadi
Sanoat va ishbilarmonlik turizmi	Navoiy sanoat zonasi, konchilik va logistika markazlari	Ishbilarmonlik tashriflari, MICE, sanoat ekskursiyalari	Xizmatlar bozori va mehmonxona bandligi kengayadi
Raqamli turizm	Elektron xarita, onlayn bronlash, mobil ilovalar	E-gid, QR-ma'lumotnoma, raqamli to'lov, CRM	Turistga qulaylik va xizmat shaffofligi oshadi

Jadvaldan ko'rinadiki, Navoiy viloyati turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish uchun bir vaqtning o'zida bir nechta turizm turiga tayanishi mumkin. Ayniqsa, cho'l turizmi, tarixiy-madaniy turizm va etnografik xizmatlarni birlashtirish viloyatni o'ziga xos turistik hududga aylantiradi. Masalan, Sarmishsoy petrogliflari bilan bog'liq marshrut faqat tarixiy ekskursiya sifatida emas, balki ekologik piyoda yurish, foto-tur, etnografik ovqatlanish va mahalliy hunarmandchilik savdosi bilan birlashtirilsa, turistning hududda qolish muddati va xarajatlari oshadi.

2025-yilda Navoiy viloyatida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 25,7 trln so'mni tashkil etgan, o'sish sur'ati 113,7 foiz bo'lgan. Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 23,3 mln so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich respublika hududlari orasida nisbatan yuqori daraja hisoblanadi. Shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 14,9 trln so'mga yetgan va bu Navoiy viloyatida xizmatlar bozorida tadbirkorlik ulushi muhim ekanini bildiradi (2-jadval; 1-rasm).⁹


2-jadval. Navoiy viloyatida xizmatlar sohasi bo'yicha ayrim rasmiy ko'rsatkichlar¹⁰

Ko'rsatkich	2025-yil qiymati	Izoh
Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi	25,7 trln so'm	Respublika umumiy hajmidagi ulushi 2,5 foiz
Bozor xizmatlari o'sish sur'ati	113,7 foiz	2024-yilga nisbatan real o'sish
Aholi jon boshiga bozor xizmatlari	23,3 mln so'm	Navoiy viloyati nisbatan yuqori hududlar qatorida
Aholi jon boshiga xizmatlar o'sishi	111,8 foiz	Xizmatlar iste'molining kengayishini bildiradi
Kichik tadbirkorlik xizmatlari hajmi	14,9 trln so'm	Xizmatlar bozorida kichik biznes roli yuqori
Kichik biznes ulushi	58,0 foiz	Hududiy xizmatlar tarkibida muhim ulush
Kichik biznes xizmatlari o'sishi	114,8 foiz	Tadbirkorlik asosidagi xizmatlar kengaymoqda

⁸ Manba: muallif tomonidan rasmiy qarorlar, ilmiy adabiyotlar va Navoiy viloyatining turistik salohiyati asosida tuzildi.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari. 2025-yil yanvar-dekabr". Press-reliz. - Toshkent, 2026-yil 20-yanvar. - B. 2-4.

¹⁰ Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil yanvar-dekabr oylariga oid xizmatlar sohasi press-relizi asosida tuzildi.



1-rasm. Navoiy viloyatida xizmatlar sohasi bo'yicha ayrim ko'rsatkichlar (2025-yil)

Mazkur ko'rsatkichlar Navoiy viloyatida turizmni rivojlantirish uchun xizmatlar iqtisodiyotining tayanch bazasi mavjudligini ko'rsatadi. Turizm xizmatlari diversifikatsiyasi aynan xizmatlar sohasidagi mavjud o'sish bilan bog'liq holda amalga oshirilsa, mehmonxona, umumiy ovqatlanish, transport, gidlik, ko'ngilochar xizmatlar, mahalliy mahsulot savdosi va raqamli xizmatlar o'zaro bog'langan iqtisodiy zanjirga aylanadi.

Navoiy viloyatini 2022–2026-yillarda kompleks rivojlantirish dasturida xizmat ko'rsatish hajmini 3,3 baravar oshirish belgilangan. Shuningdek, turizm obyektlari va dam olish joylarini tashkil qilish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha 84 ta obyekt, turistlar sonini oshirish bo'yicha esa jami 2 298 ming kishi ko'rsatkichlari belgilangan. Shu jumladan, xorijiy turistlar 80,6 ming kishi, ichki turizm hisobiga keluvchilar esa 2 217,4 ming kishi sifatida ko'rsatilgan (3-jadval).¹¹

3-jadval. 2022–2026-yillarda Navoiy viloyati bo'yicha turizm va xizmatlar sohasiga oid maqsadli ko'rsatkichlar¹²

T/r	Ko'rsatkich	O'lchov birligi	Jami ko'rsatkich	Mazmuni
1	Xizmat ko'rsatish hajmi	marta	3,3 baravar	Hududda xizmatlar iqtisodiyotini kengaytirish
2	Turizm obyektlari va dam olish joylarini tashkil qilish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish	dona	84	Turizm taklifini ko'paytirish va hududiy obyektlar yaratish
3	Turistlar sonini oshirish	ming kishi	2 298,0	Turistik oqimni ko'paytirish bo'yicha umumiy maqsad
3.1	Xorijiy turistlar	ming kishi	80,6	Xalqaro turizm segmentini kengaytirish
3.2	Ichki turizm hisobiga	ming kishi	2 217,4	Mahalliy sayyohlar oqimini kuchaytirish

3-jadval shuni ko'rsatadiki, Navoiy viloyatida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishda eng katta salohiyat ichki turizm segmentiga to'g'ri keladi. Bu holat, bir tomondan, viloyatning respublika ichidagi sayohatlar uchun qulay marshrutlarga ega ekanini bildirsa, ikkinchi tomondan, xorijiy turistlar ulushini oshirish uchun alohida marketing strategiyasi zarurligini ko'rsatadi. Xorijiy turistlar uchun Navoiy viloyatini Samarqand–Buxoro–Xiva klassik yo'nalishlariga qo'shimcha “cho'l va petrogliflar marshruti” sifatida ulash mumkin. Ichki turistlar uchun esa dam olish maskanlari, ziyorat yo'nalishlari, oilaviy sayohat paketlari va qisqa muddatli hafta oxiri turlari samarali bo'ladi.

Turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning yana bir muhim yo'nalishi — raqamli xizmatlarni kengaytirishdir. Bugungi sayyoh turistik mahsulot haqida dastlabki axborotni ko'pincha internet orqali oladi.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-apreldagi 217-son Qarori. - 2022-2026-yillarda Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar parametrlari, B. 6-11.

¹² Manba: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-apreldagi 217-son qarori ilovalari asosida tuzildi.



Demak, Navoiy viloyatida turizmni rivojlantirish uchun alohida raqamli xarita, ko'p tilli veb-sahifa, onlayn bronlash, QR-ma'lumotnomalar, elektron gidlar, mobil marshrutlar va raqamli to'lov tizimlari zarur. Raqamli texnologiyalar turistlar oqimini monitoring qilish, xizmat sifatini baholash, narxlarni shaffolashtirish va turistik obyektlar haqidagi ma'lumotlarni tezkor yangilash imkonini beradi (4-jadval).

4-jadval. Navoiy viloyati turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish bo'yicha SWOT tahlil¹³

Kuchli tomonlar	Kuchsiz tomonlar
Qizilqum cho'li, Sarmishsoy, Nurota, Aydarko'l kabi noyob resurslar	Turistik obyektlar o'rtasida integratsiyalashgan paketlar yetarli emas
Sanoat, logistika va transport imkoniyatlari	Xorijiy tillardagi kontent va professional gidlar yetishmasligi mumkin
Ichki turizm uchun keng hududiy baza	Ayrim obyektlarda servis sifati va sanitariya infratuzilmasi notekis
Kichik biznes xizmatlari ulushining yuqoriligi	Raqamli bronlash va onlayn marketing tizimlari to'liq rivojlanmagan
Imkoniyatlar	Xavflar
Cho'l safari, ekoturizm, ziyorat, MICE va etnoturizmni birlashtirish	Mavsumiylik va iqlim sharoitining keskinligi
Samarqand-Buxoro-Xiva yo'nalishlariga qo'shimcha marshrut sifatida kirish	Xizmat sifati past bo'lsa, turistlarning qayta kelish ehtimoli pasayadi
Davlat-xususiy sheriklik asosida yangi obyektlar yaratish	Ekologik yuklama va tabiiy resurslarga bosim ortishi
Raqamli platformalar orqali xalqaro bozorga chiqish	Raqobatchi hududlar turizm marketingida faolroq bo'lishi mumkin

SWOT tahlil shuni ko'rsatadiki, Navoiy viloyatining asosiy ustunligi uning takrorlanmas tabiiy va tarixiy resurslaridir. Biroq ushbu resurslar xizmatlar majmuasiga aylantirilmasa, ular iqtisodiy natija bermaydi. Masalan, Sarmishsoyga boradigan turist uchun transport, gid, xavfsizlik, ovqatlanish, esdalik mahsuloti, raqamli ma'lumotnoma va yaqin atrofdagi qo'shimcha marshrut birgalikda taklif qilinsa, xizmatlar zanjiri shakllanadi. Aks holda, turistik obyekt bir martalik ko'rish nuqtasi bo'lib qoladi.

Turizm xizmatlari diversifikatsiyasining iqtisodiy samarasi bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, turistik mahsulotlar soni ko'payadi va turistning hududda qolish muddati uzayadi. Ikkinchidan, kichik biznes subyektlari uchun yangi xizmat bozorlari paydo bo'ladi. Uchinchidan, qishloq va cho'l hududlaridagi aholi uchun qo'shimcha daromad manbalari yaratiladi. To'rtinchidan, viloyatning ijobiy imiji kuchayib, investitsiya va xizmat ko'rsatish sohasiga qiziqish ortadi.

Navoiy viloyatida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishda quyidagi strategik yondashuvlar muhim hisoblanadi:

1. Turistik klaster yondashuvini shakllantirish. Sarmishsoy, Nurota, Aydarko'l va Qizilqum hududlari alohida obyekt sifatida emas, balki yagona klaster sifatida targ'ib qilinishi zarur. Klaster tarkibiga transport, mehmon uylari, gidlar, ovqatlanish, hunarmandchilik, suvenir savdosi va raqamli xizmatlar kirishi lozim.

2. Ichki turizm paketlarini kengaytirish. Mahalliy sayyohlar uchun dam olish kunlari mo'ljallangan qisqa turlar, oilaviy sayohatlar, o'quvchi-talabalar uchun ilmiy-ma'rifiy marshrutlar va ziyorat yo'nalishlari ishlab chiqilishi kerak.

3. Xalqaro turistlar uchun noyob brend yaratish. Navoiy viloyati xalqaro bozorda "Qizilqum va qadimiy tasvirlar hududi", "cho'l sarguzashti", "Sarmishsoy petrogliflari" kabi aniq brendlar orqali targ'ib qilinishi mumkin.

4. Raqamli marketingni kuchaytirish. Har bir obyekt uchun ko'p tilli raqamli pasport, onlayn xarita, QR-kodli ma'lumot, virtual tur va ijtimoiy tarmoqlarda qisqa video kontentlar tayyorlanishi kerak.

5. Ekologik barqarorlikni ta'minlash. Cho'l va tabiiy hududlarda turizmni rivojlantirishda chiqindi boshqaruvi, suvdan tejamkor foydalanish, transport yuklamasini nazorat qilish va tabiiy muhitni asrash majburiy shart bo'lishi kerak. Mazkur yo'nalishlar Navoiy viloyatining turizm xizmatlarini oddiy ekskursiya modelidan yuqori qo'shimcha qiymatli xizmatlar modeliga o'tkazadi. Ayniqsa, kichik tadbirkorlik xizmatlari hajmi va ulushi yuqori bo'lgan viloyatda turizm xizmatlarini mahalliy biznes bilan bog'lash strategik ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Navoiy viloyatida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish hududning iqtisodiy salohiyatini kengaytirish, xizmatlar bozorini rivojlantirish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va aholi bandligini oshirishning muhim

13 Manba: muallif ishlanmasi.



yo'nalishidir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, viloyatning Qizilqum cho'li, Sarmishsoy petrogliflari, Nurota, Aydarko'l, ziyorat maskanlari va etnografik resurslari turizmni bir necha yo'nalishda rivojlantirishga imkon beradi.

Maqola natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, Navoiy viloyatida Sarmishsoy–Nurota–Aydarko'l–Qizilqum yo'nalishini yagona turistik klaster sifatida rivojlantirish zarur; ikkinchidan, ichki turizm uchun oilaviy, ziyorat, o'quv-ma'rifiy va dam olish kunlari turlarini ko'paytirish lozim; uchinchidan, xorijiy turistlar uchun cho'l safari, petrogliflar, etnomadaniy tajriba va ekologik marshrutlarni birlashtirgan yuqori qiymatli paketlar ishlab chiqish kerak; to'rtinchidan, turistik obyektlarni ko'p tilli raqamli xarita, QR-ma'lumotnoma va onlayn bronlash tizimlariga ulash talab etiladi; beshinchidan, xizmatlar sifatini oshirish uchun gidlar, mehmon uylari va umumiy ovqatlanish subyektlari xodimlari malakasini oshirish tizimini kuchaytirish zarur.

Umuman olganda, Navoiy viloyatida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish tabiiy va tarixiy resurslarni iqtisodiy qiymatga aylantirishning samarali mexanizmidir. Ushbu jarayon rasmiy strategik hujjatlar, statistik ko'rsatkichlar, xususiy sektor tashabbusi va raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilsa, Navoiy viloyati respublikaning istiqbolli turizm hududlaridan biriga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-4143188#-4152112>
2. Hayitboyev R. O'zbekistonning cho'llarida turizmni rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. - Samarqand: SamISI, 2018. - 144 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-apreldagi "2022-2026-yillarda Navoiy viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 217-son qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5988219>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-dekabrdagi "Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-430-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-7265566>
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari. 2025-yil yanvar-dekabr". Press-reliz. - Toshkent, 2026-yil 20-yanvar.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. "2025-yilda O'zbekistonga 11,7 million nafar turist kelgan". - Toshkent, 2026-yil 16-yanvar.
7. Mamanov M.Q. Raqamli transformatsiya sharoitida turizm menejmentini rivojlantirish istiqbollari. // "XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. - Toshkent, 2026. - №1. - B. 190-203.
8. Bekmurodov B.F., Ergasheva L.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirish uchun raqamli innovatsiyalarni joriy etish. // Solution of Social Problems in Management and Economy: International Scientific Online Conference - 2025. - B. 157-160.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
